

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**MISIROV ZAFAR XOLMUMINOVICH**

**VODOROD SULFIDLI KORROZIYA UCHUN INGIBITORLAR OLIH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNING TADQIQI**

**02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori(PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Misirov Zafar Xolmuminovich**

Vodorod sulfidli korroziya uchun ingibitorlar olish texnologiyasini  
ishlab chiqish va ularning tadqiqi.....3

**Мисиров Зафар Холмунович**

Исследование и разработка технологии получения  
ингибиторов сероводородной коррозии .....21

**Misirov Zafar Khalmuminovich**

Research and development of production technology  
hydrogen sulfide corrosion inhibitors.....41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....43

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**MISIROV ZAFAR XOLMUMINOVICH**

**VODOROD SULFIDLI KORROZIYA UCHUN INGIBITORLAR OLIH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNING TADQIQI**

**02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3246 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.  
Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tktiti.uz](http://www.tktiti.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Beknazarov Hasan Soyibnazarovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Muxamedgaliyev Baxtiyor Abdukadirovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Nurulloyev Zafar Ismatulloyevich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti**

Dissertasiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 raqamli ilmiy kengashning « 16 » 06 2023 yil soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Shurobozor. Tel.: (+99895) 144-67-83, E-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru), [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz)).

Dissertasiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 2023/14 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Sho'robozor Tel.: (+99895) 144-67-83, E-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru), [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz)).

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil « 01 » 06 kuni tarqatildi.

(2023 yil « 01 » 06 dagi № 2023/14 raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**Djalilov A.T.**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof., akademik  
**Shirinov Sh.D.**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f. PhD., k.i.x.  
**Qiyomov Sh.N.**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f. PhD., k.i.x.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda dunyoda ingibirlash samaradorligi yuqori bo'lgan korroziya ingibitorlarini ishlab chiqish va ularni metall va metallar asosidagi konstruksiyalarni korroziyadan himoya qilishda qo'llash korroziya sohasidagi muammolarni bartaraf etishda asosiy yechimlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa bugungi kunda sanoat, ishlab chiqarishning iqtisodiy rivojlanishi qurilmalarning barqaror holatda ishlashi bilan uzviy bog'liq. Ammo, korroziya ingibitorlarining yangi avlodini yaratishda bir qator talablar mavjud bo'lib, bular: quyi konsentratsiyali, ekologik jihatdan atrof-muhitga zararsiz va iqtisodiy jihatdan tannarxi arzon bo'lgan korroziya ingibitorlariga katta e'tibor berilmoqda. Korroziya ingibitorlari neft va gaz sanoatida turli agressiv, vodorod sulfidli, kislotali, karbonatli va suvli muhitlardagi quvurlarni korroziyadan himoya qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahonda metallar korroziyasini oldini olish uchun organik va noorganik birikmalar asosida barcha talab va standartlarga javob bera oladigan korroziya ingibitorlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda tarkibida azot va fosfor saqlagan oligomer hamda kompozitli korroziya ingibitorlarini olish shuningdek, neft va gaz sanoatidagi turli agressiv muhitlarda metallarni korroziyadan himoyalashda ingibirlash samaradorligi yuqori bo'lgan korroziya ingibitorlarini sintez qilish va qo'llash hamda mavjud texnologiyalarni takomillashtirish borasida dunyo bo'ylab olib borilayotgan tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyolar va ikkilamchi mahsulotlar asosida import o'rnini bosuvchi yangi turdagi korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarish va ularni turli agressiv muhitlarda ingibirlash samaradorligini sinovdan o'tkazish bo'yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida «mahalliy xomashyo va ikkilamchi resurslardan import o'rnini bosuvchi mahsulotlar olish texnologiyalarini yaratish»<sup>1</sup> ga qaratilgan muhim vazifalari belgilangan. Bu borada metall konstruksiyalari korroziyasining oldini olishda iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik jihatdan xavfsiz bo'lgan korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarish hamda mavjud texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3264-son «Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiya» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Korroziya ingibitorlarini yaratish va ularning ingibirlash xossalarini tadqiq qilish bo'yicha Singh P, Ebenso E.E, Olasunkanmi L.O., Obot I.B., Paul S., Koley I., Muraveva S.A., Mel'nikov V.G., Egorov V.V., Kuznetsov Y.I., Kazanskaya G.Y., Tsurulnikova N.V., Annand R.R., Hurd R.M., Hakkerman N., Chernov V.Y., MDH mamlakatlaridan Rozenfeld I.L., Borisov D.N., Agafonkin A.V., Danilova G.N., Farxutdinova A.R., Chepkasova O.A., Kuznetsov YU.I., Vigdorovich V.I., Fedotova A.I., Levashova V.I., Tadjixodjaev Z.A., hamda O'zbekiston olimlaridan Beknazarov H.S., Djalilov A.T., Tillaev R.S., Siganov T.D., Qurbanov F.K., Xolikov A.J., Akbarov X.I., Ikramov A., Yusupov D., Qodirov X.I., Nurilloev Z.I., Narzullaev A.X., Eshmamatova N.B., Yodgorov N. va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Ushbu olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyati neft va gaz sanoatidagi metallarning korroziyasini oldini olish uchun mahalliy va ikkilamchi mahsullotlar asosida korroziya ingibitorlarining yangi avlodini yaratish hamda ularning turli agressiv muhitlarda qo'llashga doir nazariy va amaliy asoslari keltirilgan bo'lib, shuningdek, korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda, turli agressiv muhitlarda metall konstruksiyalarini korroziyadan himoyalashda, noorganik tuzlar, organik polimerlar, tabiiy manbalarning ekstraktlari va boshqa tarkibida azot, fosfor hamda oltingugurt saqlagan birikmalarni kislotali va vodorod sulfidli, shuningdek, karbonatli muhitlarda po'lat materiallarini korroziyadan himoya qilish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti MCHJ ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining X/SH №12-06 «Mahalliy xom-ashyolar asosida yangi samarali oligomer korroziya ingibitorlarini ishlab chiqish va qo'llash» (2007 y.) mavzusidagi xo'jalik shartnomasi hamda A12-005 «Mahalliy xom-ashyolar asosida yangi samarali korroziya ingibitorlarini olish va ularni qo'llash» (2015-2017 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** polietilenpoliamin, kroton al'degid, etilendiamintetrasirka kislota, natriy metasilikat va ortofosfat kislotalar asosida samarali, ekologik xavfsiz korroziya ingibitorlarini olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

polietilenpoliamin va kroton al'degidi asosida oligomer hamda etilendiamintetrasirka kislota, natriy metasilikat va ortofosfat kislota asosida kompozit korroziya ingibitorini sintez qilishning ma'qbul sharoitlarini aniqlash;

sintez qilingan korroziya ingibitorlarining tuzilishini fizik-kimyoviy zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilish;

olingan oligomer va kompozit korroziya ingibitorlarining ingibirlash samaradorligini hamda ingibirlash mexanizmlarini o'rganish;

po'latning ingibitorli va ingibitorsiz eritmalaridagi sirt yuzasining morfologiyasini zamonaviy fizik tadqiqot usullari yordamida tadqiq qilish;

oligomer va kompozit korroziya ingibitorlarini olishning prinsipial texnologik sxemasini ishlab chiqish va iqtisodiy samaradorligini asoslash hamda tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida kroton al'degidi va polietilenpoliamin asosida oligomer PKA-1 hamda fosfat kislota, natriy metasilikat va etilendiamintetrasirka kislotalar asosida kompozit EDfS-1 markali korroziya ingibitorlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** korroziya ingibitorlarining ingibirlash mexanizmini aniqlash, turli konsentratsiya va haroratlarda ingibirlash samaradorligi hamda himoyalash darajalarini tadqiq qilish, shuningdek, korroziya ingibitorlarini olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida olingan korroziya ingibitorlarining tuzilishi va ingibirlash samaradorligi IQ-spektroskopiya, YAMR va PMR-spektroskopiya, hamda elektrokimyoviy va gravimetrik, shuningdek, sirt morfologiyasini o'rganishda skanerlovchi elektron mikroskop va atom kuchi mikroskopi kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor polietilenpoliamin va kroton al'degidi asosida oligomer PKA-1 va etilendiamintetrasirka kislota, natriy metasilikat va ortofosfat kislota asosida kompozit EDfS-1 markali korroziya ingibitorlari sintez qilingan;

olingan oligomer korroziya ingibitorining tuzilishi IQ-spektroskopiya, YAMR va PMR-spektroskopiya tarkibi va tuzilishi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan;

oligomer va kompozit korroziya ingibitorlarining po'latni vodorod sulfidli va turli kislotali muhitlardagi ingibirlash samaradorligi gravimetrik hamda elektrokimyoviy usulda ingibirlash mexanizmi aniqlangan;

po'lat yuzasining sirt morfologiyasi ingibitorli muhitda botiq va cho'qqilarining o'lchamlari ingibitorsiz muhitdagi po'latning botiq va cho'qqilarining o'lchamlariga qaraganda kichik ekanligini skanerlovchi elektron mikroskop va atom kuch mikroskoplari yordamida aniqlangan;

oligomer PKA-1 va kompozit EDfS-1 markali korroziya ingibitorlarini olishning prinsipial texnologik sxemasi va texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

kroton aldegidi, polietilenpoliamin, fosfat kislota, natriy metasilikat va etilendiamintetrasirka kislota asosidagi korroziya ingibitorlarini olishning texnologiyalari ishlab chiqilgan;

po'lat sirtining morfologiyasini vodorod sulfidli va turli kislotali muhitlarda tadqiq qilinganda, ingibitor qo'llanilgan eritmalarda po'lat yuzasining morfologiyasi yaxshilangani aniqlangan;

sintez qilingan korroziya ingibitorlarini vodorod sulfidli, plast suvida va kislotali muhitlarda ingibirlash samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** korroziya ingibitorlarining tuzilishi va ingibirlash samaradorligi hamda ingibirlash mexanizimi IQ-, YAMR va PMR-spektroskopiya skanerlovchi elektron mikroskop, atom kuch mikroskopi, gravimetrik, elektrokimyoviy, termodinamik va kinetik nazariyalar asosida ingibitorlarning samaradorligi aniqlanganligi, shuningdek, tajriba va ishlab chiqarish maydonlarida o'tkazilgan sinov natijalarining o'zaro mutanosibligi hamda ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sintez qilingan yangi oligomer va kompozit tipli korroziya ingibitorlarining tarkibi hamda komponentlarning kimyoviy tabiatiga bog'liq bo'lgan samarali ingibitorlarini olish, tarkibi va texnologiyalarini ishlab chiqishning ilmiy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kimyo sanoatining ikkilamchi mahsuloti hisoblangan kroton al'degidi, polietilenpoliamin asosida sintez qilingan oligomer tipli va fosfat kislota, natriy metasilikat hamda etilendiamintetrasirka kislotalar asosida olingan kompozit tipli birikmalari import o'rnini bosuvchi va ekologik xavfsiz ingibitorlarni sanoatga qo'llash imkonini beruvchi yangi korroziya ingibitorlarini olishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Polietilenpoliamin, kroton al'degidi, fosfat kislota, meta-silikat natriy va etilendiamintetrasirka asosida olingan birikmalarni korroziya ingibitorlari sifatida qo'llash bo'yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

sintez qilingan PKA-1 korroziya ingibitorini olish texnologiyasi «O'zbekneftgaz» AJ «Muborak gazni qayta ishlash zavodi» MCHJ ning “2021-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati” ga kiritilgan. («O'zbekneftgaz» AJ «Muborak gazni qayta ishlash zavodi» ning 2022 yil 27 avgustdagi 751/GK-08-son ma'lumotnomasi). Natijada, vodorod sulfidli muhitlarda ishlovchi qurilmalarning korroziya tezligini sezilarli darajada kamaytirib, po'lat materiallarini himoyalash imkonini bergan;

sintez qilingan EDFS-1 markali korroziya ingibitorini olish texnologiyasi «O'zbekneftgaz» AJ «Muborak gazni qayta ishlash zavodi» MCHJ ning “2021-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati” ga kiritilgan («O'zbekneftgaz» AJ «Muborak gazni qayta ishlash zavodi» ning 2022 yil 27 avgustdagi 751/GK-08-son ma'lumotnomasi). Natijada, suv aylanma sistemalarda ishlovchi po'lat konstruktsiyalarini korroziyadan himoyalash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 12 ta ilmiy-amaliy, shu jumladan 4 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda ma'ruzalar qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil qiladi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Korroziya ingibitorlarini yaratish tadqiqoti va istiqbollari**» deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Ma'lumotlar umumlashtirilgan va ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning «**Korroziya ingibitorlari sintezi hamda ularni tadqiq qilish usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'ektlari, sintez qilingan birikmalarning fizik-kimyoviy xossalarni o'rganish, IQ-spektroskopiya va YAMR hamda PMR usullaridan foydalangan holda sintez qilingan birikmalarning tuzilishini aniqlashga yondashuvi tasvirlangan. Korroziya ingibitorlarining ingibirlash samaradorligi va ingibirlash mexanizmini aniqlashda elektrokimyoviy, gravimetrik, adsorbtsion hamda termodinamik tadqiqot usullari keltirilgan.

*Polietilenpoliamin va kroton al'degidi asosida korroziya ingibitori sintezi.* Polietilenpoliamin va kroton al'degidining dimetilformiamid erituvchi ishtirokida quyidagi formulali kimyoviy birikmasi sintez qilindi.




Bunda boshlang'ich moddalarni mol nisbati 1:2, harorat 50 °C bo'lib, 2 soat davomida aralashtirib turish yo'li bilan olindi. Olingan mahsulot qattiq polimersimon modda bo'lib, spirt va asetonda yaxshi eriydi, suvda odatdagi haroratda erimaydi ammo harorat biroz ko'tarilishi bilan eriydi.

**PEPA va kroton aldegidi asosida olingan PKA-1 markali korroziya ingibitori hosil bo'lishiga haroratning ta'siri**

PEPA va kroton al'degidining mol nisbati	Harorat °C	Unum %	Harorat °C	Unum %
1:1	50	92.12	30	89.24
1:2		96.51		82.05
2:1		87.61		72.62

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, harorat 5<sup>o</sup> - 50<sup>o</sup>C oralig'ida va dastlabki moddalarning mol nisbati 1:2 bo'lganda mahsulot unumi eng yuqori ko'rsatkichni namoyon qilgan. Haroratdan keyingi muhim omillardan biri bu dastlabki moddalarning mol nisbatidir degan xulosa kelib chiqadi.

Sintez qilingan PKA-1 korroziya ingibitori tarkibining tuzilishi IQ-spektrometr (IQ-Fure, SHIMADZU, Yaponiya) va YAMR hamda PMR spektroskopik tahlili.




**1-rasm. PKA-1 korroziya ingibitorining IQ-spektri.**


IQ-spektrining teskari tebranish sohasida 4000  $\text{sm}^{-1}$  sohangacha bo'lgan oralig'ida o'rganildi. Bunda, IQ spektridagi tebranish sohalarda, ushbu azot va metilen guruhi o'rtasidagi -N-CH- azot va uglerod bog'larining tebranish chiziqlari 1668  $\text{sm}^{-1}$  da paydo bo'ladi, shuningdek  $\text{NH}_2$  guruhlarining tebranish chiziqlari 657  $\text{sm}^{-1}$  mintaqasida paydo bo'ladi. 2935  $\text{sm}^{-1}$  va 2808  $\text{sm}^{-1}$  hamda 1091  $\text{sm}^{-1}$  tebranish sohalari CH- va  $\text{CH}_2$ - guruhlar uchun xarakterlidir, shuningdek, 1440  $\text{sm}^{-1}$  mintaqasida egilish tebranishlari paydo bo'ladi. 1384  $\text{sm}^{-1}$  mintaqasida  $\text{CH}_3$  guruhiga tegishli tebranishlar paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

*PKA-1 korroziya ingibitorining YAMR va PMR spektroskopik tahlili.*

Namuna sifatida olingan polietilenpoliaminning kroton aldegidi bilan hosil qilgan birikmasining  $^1\text{H}$ -YAMR va  $^{13}\text{C}$ -YAMR spektrlari olindi (2-rasm).



2a-rasm. PKA-1 korroziya ingibitorining YAMR spektri



2b-rasm. PKA-1 korroziya ingibitorining PMR spektri

Sintez qilingan PKA-1 korroziya ingibitorining YMR-spektri tahlil qilinganda (1-rasm), proton (H -8) 4,74-4,76 m.d., (H-2 va H -6) 5,10-5,12 m.d. va (H -5 va H -3) 7,38-7,45 m.d. ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, tarkibida uglerod (C-2 va C-3) bo'lgan azot bilan bog'langan 53,640., (C-3 va C-4) -42,913-41,617 m.d. qo'shbo'g' bilan uglerod atomlarini ko'rsatdi. Olingan spektrlar PKA-1 korroziya ingibitorining tuzlishini tasdiqlaydi.

*Etilendiamintetrasirka kislota, natriy metasilikat (suyuq shisha) va fosfat kislota asosidagi korroziya ingibitori sintezi* - Ushbu kompozit tipli korroziya ingibitorini olishda etilendiamintetrasirka kislota (EDTSK), meta-silikat natriy va fosfat kislotaning turli mol nisbatlarda aralshtirish usuliga asoslangan. Bunda turli mol nisbatlarda olingan aralashmaning ingibirlash samaradorligi o'rganilganda aralashmalar (EDTSK: natriy metasilikat: fosfat kislota) ning eng optimal mol nisbatlari quyidagicha 1:3:1 bo'lgan.

Dastlab suv 40-45 °C gacha qizdiriladi va magnit aralashtirgich yordamida aralashtirilgan holda unga ma'lum mol nisbatlarda olingan moddalar ketma ketlikda qo'shib boriladi. Bunda, dastlab fosfat kislota so'ngra ustiga natriy silikat va EDTSK qo'shiladi. Aralashma aralashtirgich yordamida 50 °C yuqori bo'lmagan haroratda ikki soatgacha aralashtirib qo'yiladi. Aralashma xona haroratigacha sovutiladi va 24 soat davomida qoldiriladi va aralashma filtrlanadi. Olingan yangi korroziya ingibitorining miqdori dastlabki moddalarning mol nisbatlariga bog'liq bo'lishi va ingibitor samaradorligi quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

**EDFS-1 korroziya ingibitorining turli mol nisbatlarda ingibirlash samaradorligi**

No	Ingibitor nomi	Komponentlar mol nisbatlari	Himoyalash darajasi.K.
1	EDFS -1	1:1:1	75,25
2		1:2:1	77,01
3		1:3:1	98,12
4		1:3:2	80,04

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, eng optimal mol nisbat bu 1:3:1 ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari aynan mana shu mol nisbatning ingibirlash

samaradorligi ham boshqa mol nisbatdagilarga qaraganda ham yuqori ekanligi gravimetrik usul bilan olingan natijalar bilan ham isbotlangan.

Dissertatsiyaning «**Korroziya ingibitorlari bilan po'latni himoya qilishning asosiy qonuniyatlarini o'rganish natijalari va ularning tahlillari**» deb nomlangan uchinchi bobida sintez qilib olingan korroziya ingibitorlarining ingibirlash samaradorligini aniqlashda gravimetrik va elektrokimyoviy tadqiqot natijalari, kinetik va termodinamik parametrlari keltirib o'tilgan.

Sintez qilib olingan yangi PKA-1 va EDF-1 markali korroziya ingibitorlarining turli agressiv muhitlarda, sovitish tizimlarida St20 markali po'latni korroziyadan yuqori samaradorlik bilan himoya qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Polietilenpoliamin va kroton aldegid asosida sintez qilingan PKA-1 markali korroziya ingibitorining St.20 markali po'latni H<sub>2</sub>S yoki CO<sub>2</sub> va turli kislotali muhitlarda ingibirlash samaradorligini o'rgandik. Laboratoriya sharoitida vodorod sulfidli muhit hosil qilish uchun natriy sulfid va xlorid kislotadan foydalanildi va konsentratsiyasini yodometrik titrlash usuli bilan o'lchab turildi. Hosil qilingan ishchi eritmadagi H<sub>2</sub>S ning konsentratsiyasi (400 mg/l) tashkil etdi. Amaliy tajribalar asosan 1000 ml sig'imli germetik qurilmalarda olib borildi. Tajriba uchun po'lat namunasi 25×13×10 o'lchamda olinib 72 soatdan 360 soatgacha bo'lgan vaqt oralig'ida turli muhitlarda sinovdan o'tkazildi.

Korroziya ingibitorlarining ingibirlash samaradorligi quyida keltirilgan formula (1) asosida hisoblanadi:

$$IE\% = \frac{CR_0 - CR_i}{CR_0} * 100 \quad (1)$$

Bu yerda:  $CR_0$  – ingibitorsiz eritmadagi po'latning korroziya tezligi va  $CR_i$  – ma'lum konsentratsiyadagi korroziya ingibitor ishtirokidagi po'latning korroziya tezligi.

Ingibitorning samaradorligi konsentratsiya, harorat, oqimning rejimi, suyuqlikning tarkibi va gazlarning (masalan, CO<sub>2</sub> va vodorod sulfidi kabi) parsial bosimi kabi parametrlarga bog'liq. Tajriba uchun olingan ishchi eritmalaridagi pH ning qiymati 5,0 dan 5,8 gacha bo'lgan oralig'ni egallagan.

Korroziya tezligining kattaligi plast suvida va CO<sub>2</sub> qo'shilgan muhitlarda farqi uncha katta bo'lmagan ko'rsatgichlarni, ammo eritmaga vodorod sulfidning (400 mg/l) qo'shilishi H<sub>2</sub>S (400 mg/l) +CO<sub>2</sub> (105 Pa) sistema hosil bo'lishi bilan agressivlik kuchayishini ko'rish mumkin.

Quyida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, PKA-1 markali korroziya ingibitori muhiti kislotali bo'lmagan eritmalar uchun yuqoriroq himoyalash darajasi (Z) ni namoyon qilgan.

PKA-1 korroziya ingibitori asosan to'rt xil konsentratsiyada 50 mg/l, 75 mg/l va 100 mg/l va 150 mg/l da olingan bo'lib, bu eritmalar ichida 150 mg/l konsentratsiyada himoyalash darajasi 94,3% ni tashkil etgan va optimal konsentratsiya deb olindi.

**3-jadval**

**Plast suvi (PS) CO<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>S ishtirokida va ishtirokisiz hamda shu gazlar birgaligida PKA-1 oligomer korroziya ingibitorining (150 mg/l) po'lat St20 markali po'latdagi korroziya tezligi K, g/(m<sup>2</sup>•soat), himoyalash darajasi Z, %**

τ, s	Ko'rsatkichlar	Muhit			
		Plast suvi (PS)	PS + H <sub>2</sub> S (400 mg/l)	PS + CO <sub>2</sub> (105 Pa)	PS + H <sub>2</sub> S (400 mg/l) + CO <sub>2</sub> (105 Pa)
24	K <sub>0</sub>	0,413	0,671	0,381	0,613
	K	0,027	0,059	0,028	0,058
	Z	93,4	91,2	92,6	90,6
240	K <sub>0</sub>	0,331	0,532	0,283	0,379
	K	0,0188	0,038	0,0195	0,0325
	Z	94,3	92,8	93,1	91,4
720	K <sub>0</sub>	0,211	0,351	0,173	0,275
	K	0,015	0,033	0,015	0,031
	Z	92,8	90,6	91,5	88,6


**4-jadval**

**PKA-1 markali ingibitorning turli haroratlarda 10 kun davomida har xil konsentratsiyali 1 M li HCl eritmalarida po'lat St20 gravimetrik usulda aniqlangan tormozlash koeffitsienti (γ), sirtni to'la qoplash darajasi (θ), himoyalash darajasi (K) qiymatlari**

Ingibitor	T, (K)	C, (mg/l)	W, gr/(sm <sup>2</sup> •soat)	γ	K, (%)	θ
PKA-1	303	-	<b>1,28</b>	-	-	-
		50	0,284	4,50	77,75	0,7775
		75	0,231	5,54	81,89	0,8189
		100	0,142	9,01	88,91	0,8891
		150	0,115	11,13	90,99	0,9099
	313	-	<b>1,56</b>	-	-	-
		50	0,343	4,55	77,95	0,7795
		75	0,264	5,90	83,08	0,8308
		100	0,172	9,07	88,96	0,8896
		150	0,125	12,48	91,98	0,9198
	323	-	<b>1,75</b>	-	-	-
		50	0,385	4,54	78,01	0,7801
		75	0,280	6,25	83,98	0,8398
		100	0,183	9,56	89,53	0,8953
		150	0,130	13,46	92,56	0,9256
	333	-	<b>1,91</b>	-	-	-
		50	0,410	4,66	78,51	0,7851
		75	0,298	6,41	84,36	0,8436
		100	0,187	10,21	90,21	0,9021
		150	0,119	16,05	93,75	0,9375

PKA-1 markali korroziya ingibitorining 1 M li HCl eritmasidagi ingibirlash samaradorligi 333 K va 150 mg/l konsentratsiyada 93,75 % ni tashkil etdi.

*Elektrokimyoviy tadqiqot natijalari.* PKA-1 markali korroziya ingibitorining ingibirlash samaradorligini PI-50.1.1 potentsiostat qurilmasi va PR-8 programmator yordamida qutblanish egrilari usulida ikki komponentli ingibitorlarning samaradorligi tadbiq qilindi. Ingibitorsiz eritmada korroziyon tok qiymati 0,982 mA/sm<sup>2</sup> ga, statsionar potensial 0,420 V teng bo'lib, 293 K haroratda olingan natijalariga ko'ra ingibitor qo'llanilganda korroziyon tokning qiymati kamayishi, korroziyon potensialining qiymati kamayganini ko'rishimiz mumkin.



**3-rasm. PKA-1 korroziyon ingibitorining 1 M HCl muhitda 293 ± 1 K da qayd etilgan St20 markali po'lat uchun qutblanish egri chiziqlari**

**5-jadval**


**293 ± 1 K haroratda PKA-1 korroziya ingibitorining 1 M HCl muhitdagi qutblanish egri chiziqlari usulida aniqlangan ingibitorning samaradorligi**

Ingibitor	C, (mg/l)	<i>i</i> , (mA/sm <sup>2</sup> )	$\gamma$	$\theta$	$\eta$ , (%)
HCl	-	0,986	—	—	—
PKA-1	50	0,215	4,59	0,7815	78,15
	75	0,165	5,98	0,8319	83,19
	100	0,104	9,48	0,8945	89,45
	150	0,075	13,15	0,9235	92,35

5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 1M li HCl mavjud eritmaning korroziyon tokning qiymati 0,986 (mA/sm<sup>2</sup>) ni tashkil etgan. Eritmada korroziya ingibitorining konsentratsiyasi oshishi bilan, eritmaning elektr qarshiligi ham ortib boradi natijada, korroziyon tok qiymatining potentsiali miqdori ham kamayib borgan va korroziyon tok qiymati 0,075 (mA/sm<sup>2</sup>) gacha kamaygan. PKA-1 korroziya ingibitorining konsentratsiyasi 150 mg/l bo'lganda 1M li HCl muhitda samaradorligi 92,35 % ni tashkil etdi.

*Sintez qilingan korroziya ingibitorlarining kinetik tadqiqot natijalari.* PKA-1 korroziya ingibitorning turli konsentratsiyalarda Arrenius tenglamasi yordamida po'lat sirtining ingibitor va ingibitorsiz muhitlardagi aktivlanish energiyasi ( $E_a$ )

aktivlanish entalpiyasi ( $\Delta H$ ) va aktivlanish entropiyasi ( $\Delta S$ ) qiymatlari aniqlandi. Shuningdek, ingibitorsiz va ingibitorli muhitlardagi  $\lg W$  ning  $1000/T$  ga bog'liqligidan  $E_a$  qiymatlari topildi.



**4-rasm. PKA-1 ingibitorining eritmadagi aktivlanish energiyasi uchun Arrenius grafigi**


$E_a$  ning qiymatlari 50, 75, 100 va 150 mg/l konsentratsiyalardagi  $E_a$  ning qiymatlari aniqlandi. Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlarga ko'ra, ingibitorsiz sistemaning aktivlanish energiyasi qiymati kichik bo'lib, ingibitor kiritilishi bilan sistemaning aktivlanish energiyasi ingibitor konsentratsiyasiga bog'liq holda ortib borganini ko'rishimiz mumkin.

6-jadval

**PKA-1 ingibitorining 1 M HCl eritmadagi kinetik va termodinamik parametrlari**

$C_{ing}$	-	50	75	100	150
$E_a$	41,78	58,18	75,11	92,87	121,21
$\Delta H$	39,03	55,43	72,36	90,12	118,46
$\Delta S$	-36,63	-17,35	36,73	57,37	76,52

$\lg W/T$  ning  $1000/T$  ga bog'liqlik o'tish holat egrilari yordamida aktivlanish entalpiyasi va entropiyasi aniqlandi (5-rasm). Aktivlanish entalpiyasi ingibitorsiz eritmada 39,03 kJ/molni, aktivlanish entropiyasining qiymati esa -36,63 J/molga teng ekanligi aniqlandi. Aktivlanish energiyasi musbat qiymatlarni qabul qilib, korroziya ingibitori qo'llanilmagan muhitda qiymati kichik bo'lib, korroziya ingibitori kiritilgach aktivlanish energiyasi ortganligi aniqlandi. Ingibitorsiz muhitning aktivlanishi uchun korroziya ingibitori qo'llanilgan jarayonga qaraganda kam energiya kerak bo'lishini korroziya ingibitori jarayonga kiritilsa jarayon qiyin borishini ko'rsatadi. Korroziya ingibitori qo'llanilmagan muhitda entropiya qiymatining manfiy bo'lishi korroziya jarayoning o'z-o'zidan borishini ko'rsatadi.



### 5-rasm. PKA-1 ingibitorining eritmadagi o'tish holat grafigi

Ingibitorsiz eritmalarda  $\Delta S_a$  ning qiymati manfiy bo'lib bunda jarayon o'z-o'zicha borishidan dalolat beradi. Ammo, eritmaga ingibitor kiritilishi bilan entropiyaning qiymati ingibitor konsentratsiyasiga (50 mg/l -17,35; 75 mg/l 36,73; 100 mg/l 57,37; 150 mg/l 76,52) bog'liq ravishda ko'rsatilgan qiymatlarni egallaydi.


*Adsorbsiya izotermalari.* Ingibirlashning eng muhim mexanizmlaridan biri bu-adsorbsiyadir. Bunda jarayon asosan ikki usul bilan amalga oshadi:

-fizik adsorbsiya, ya'ni bunda ingibitor molekulasida tarkibidagi ion zaryadlar metal va eritma chegarasida elektrostatik tortishuvlar asosida vujudga keladi;


-xemosorbsiya, bunda zaryadlarning ko'chishi natijasida koordinatsion bog'lanishlar hosil bo'lishi bilan boradi;

Yuqoridagi tushunchalarni to'ldirish uchun, aktivlanish energiyasi ( $E_a$ ), aktivlanish entalpiyasi ( $\Delta H_a$ ), aktivlanish entropiyasi ( $\Delta S_a$ ), kabi turli parametrlar Arrhenius grafigi va oraliq holat grafigida tekshirildi.


PKA-1 markali korroziya ingibitorining 1 M xlorid kislotali muhitda olingan (a) Lengmuir, (b) Frumkin va (c) Temkin izotermalari ham chizilgan.




6a-rasm. PKA-1 ingibitorining eritmadagi Lengmyur izotermasi



6b-rasm. PKA-1 ingibitorining eritmadagi Frumkin izotermasi



**6c-rasm. PKA-1 ingibitorining eritmadagi Temkin izotermasi**




**6d-rasm.  $\Delta G_{0ads}$  ning temperaturaga bog'liqligi**

303-333 K haroratda korelyatsiya koeffitsientining Langmuir izotermasi qiymatlari (0,9987; 0,9994; 0,9995; 0,9993;), Frumkin izotermasining qiymatlari (0,9631; 0,9855; 0,9871; 0,9835;) va Tyomkin izotermasining qiymatlari (0,9045; 0,912; 0,9097; 0,9118) ekanligi aniqlandi. Frumkin va Tyomkin izotermasining korelyatsiya koeffitsientlari 1 ga yaqin son emasligidan shuni bilishimiz mumkinki, demak bu jarayon ya'ni adsorbsiya jarayoni ushbu izotermalar bo'yicha bormasligini tasdiqlaydi.


Lengmyur izotermasining korelyatsiya koeffitsienti 1 ga yaqin bo'lganligi uchun bu Lengmyur izotermasi bo'yicha adsorbsiya borishini ko'rsatadi.

*Skanerlovchi elektron mikroskop va atom kuch mikroskopi yordamida po'latning sirt yuzasining morfologiyasini tadqiq qilish*


Po'latning St.20 markali namunasi bilan turli konsentratsiyalarda o'tkazilgan namunalarining yuza sirtini morfologik SEM usulida o'rganilgan. Amaliy tajriba uchun olingan po'lat namunasining 7a-rasmda amaliy tajribagacha bo'lgan fotosurati tasvirlangan. 7b-rasmda po'lat namunasining texnik suvda ingibitorsiz holatda olingan rasm keltirilgan, 7c-rasmda esa korroziya ingibitori ishtirokida olingan po'lat namunasining rasmi keltirilgan. Har ikkala jarayonda vaqt davomiyligi 240 soatga teng.



**7a-rasm. Po'lat St20 amaliy tajribadan oldingi ko'rinishi**




**7b-rasm. Po'lat St20 ingibitorsiz eritmadagi amaliy tajribaning fotosurati.**




**7c-rasm. Po'lat St20 ingibitor qo'llanilgandagi amaliy tajribaning fotosurati.**

(AKM)ning skanerlash darajasi nano-mikro darajasida bo'lib, ingibitorlarning ta'sirini va metall/eritma chegarasidagi korroziyaning hosil bo'lishi va oldini olishga ta'sirini o'rganish uchun yuqori aniqlikdagi zamoaviy qurilma hisoblanadi.



**8-rasm. St20 markli po'lat namunasining ingibitorsiz 1 M xlorid kislota eritmasidagi sirt morfologiyasining atom kuch mikroskopi yordamida olingn mikrofotosurati**




**9-rasm. 1 M li HCl eritmada yashil korroziya korroziya ingibitor bilan ingibirlangan po'lat sirtining tuzilishi atom kuch mikroskopida olingan 3D mikrografifi.**

Ushbu 8 va 9 rasmlarda St20 markali po'lat yuza 4.5x4.5 nm o'lchamda o'rganilib tahlil qilingan, olingan natijalardan ko'rishimiz mumkinki, ingibitorsiz eritmadagi qavariq cho'qqilarining o'lchami 353 nm bo'lib ingibirlangan namunada esa 100 nm, ingibirlanmagan namunadagi botiqlarning o'lchami esa 145 nm bo'lib, ingibirlangan namunada 55 nm tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqadiki, ingibirlanmagan namunada cho'qqilarning yuqori bo'lishi korroziya yuqori darajada borganligini, ingibirlangan eritmalarda cho'qqilarining o'lchamlari kichik bo'lishi korroziya jarayoni sekinlashganini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning «**PKA-1 va EDFS-1 korroziya ingibitorlarini sintez qilishning texnik-iqtisodiy samaradorligi**» deb nomlangan to'rtinchi bobida korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarishning texnologiyalari yoritilgan.

PKA-1 korroziya ingibitorini ishlab chiqarish texnologik sxemasi 10-rasmda keltirilgan bo'lib, texnologik jarayonning oddiyligi mahsulot tannarxining pasayishiga olib keladi.

1-kroton al'degidi va 2-polietilenpoliamin 5-eituvchi dimetilformiamid ishtirokida 6-reaktorga sekin astalik bilan kiritilib turiladi. 6-reaktorda harorat 50 °C bo'lib, jarayoning davom etish vaqti 2 soat, sekinlik doimiy holatda 3-aralashtirgich yordamida aralashtirib turiladi. Olingan mahsulot 8-barabanli quritish pechiga yuboriladi, barabandagi issiqlik hisobiga bug' holatidagi erituvchi 9-kondensatorga o'tadi va kondensatlangan erituvchi jarayonga qaytarish uchun 7-kompressor yordamida dastlabki 5-erituvchiga yuboriladi. 8-baraban tipli quritgichda olingan mahsulot 10- qadoqlashga yuboriladi.



**10-rasm. PKA-1 markali korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarish.**

1-kroton aldegidi uchun idish, 2-polietilenpoliamin uchun idish, 3-aralashtirgich, 4-sovutkich, 5-dimetilformamid uchun idish, 6-kimyoviy reaksiya boradigan reaktor, 7-kompressor, 8-barabanli pech tipidagi quritgich. 9-bug' holatdagi erituvchini yig'ib oluvchi kondensator, 10-mahsulotni qadoqqa tayyorlash.

7 – jadval

**1 tonna PKA-1 va EDF-1 korroziya ingibitorini ishlab chiqarishdagi narxlarning strukturasi**

	PKA-1	EDFS-1
Xomashyolar	15 585 000	20 506 000
Ish haqi	300 000	300 000
Yagona ijtimoiy to'lov 15%	45 000	45 000
Qo'shimcha xarajatlar	100 000	50 000
Ko'zda tutilmagan xarajatlar	50 000	50 000
Rentabillik, 5%	804000	1 047 550
QQS, 15%	2 532 600	3299782,5
Jami	19 416 000	25 298 422,5
1 kg mahsulot tannarxi, so'm	19 416,000	25 298,422

7-jadvaldan ko'rinadiki, PKA-1 korroziya ingibitorining 1 kg uchun tannarx 19 416, 000 ming so'mni tashkil etdi. Shuningdek, EDF-1 markali korroziya ingibitorining 1 kg tannarxi 25 298,422 ming so'mni tashkil etdi.

8-jadvaldagi import qilinayotgan Universal korroziya ingibitorining tannarxi bilan biz taklif qilayotgan PKA-1 va EDF-1 korroziya ingibitorlarini solishtirilganda, har bir tonnasi uchun 19 031 000 va 13 149 000 so'mda iqtisodiy samaradorlikni ko'rishimiz mumkin.

8-jadval

**Xorijiy Universal markali korroziya ingibitori narxining strukturasi**

No	Nomlanishi	O'lchov birligi	Miqdori	Bir birligining narxi, so'm	Umumiy yig'indi, so'm
1	Universal	kg	1000	38447	3 8 447 000
<b>Jami:</b>					<b>38 447 000</b>

Biz tomonimizdan taklif qilingan korroziya ingibitorlari nafaqat iqtisodiy balki ingibirlash samaradorligi bilan ham samaraliroq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### **XULOSALAR**

1. Tarkibida azot va fosfor saqlagan organik va noorganik birikmalar ya'ni kroton al'degidi va polietilenpoliamin asosida PKA-1 va etilendiamintetrasirka kislota, natriy metasilikat (suyuq shisha) va ortofosfat kislota asosida EDFS-1 markali korroziya ingibitorlari sintez qilingan va ularni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

2. Sintez qilingan korroziya ingibitorlarining tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xususiyatlari IQ-spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, YAMR va PMR kabi fizik-kimyoviy usullar yordamida o'rganilgan. Kinetik tadqiqotlar asosida korroziya jarayonining turli kontsentratsiyalardagi termodinamik funksiyalari - aktivalnash energiyasi, entalpiyasi va entropiya qiymatlari aniqlangan. Adsorbsiya jarayoni kinetik parametrlar va termodinamik funksiyalar orqali izohlangan.

3. Korroziya ingibitorlarining plast suvi, H<sub>2</sub>S-CO<sub>2</sub> va CO<sub>2</sub> sistemalarida korroziya ingibitorining ingibirlash samaradorligi o'rganilgan. Bu jarayonda korroziya ingibitorlarining konsentratsiyasi va harorat o'rtasidagi bog'liqligi keltirib o'tilgan. Gravimetrik usulda aniqlangan natijalarga ko'ra PKA-1 markali korroziya ingibitorining kontsentratsiyasi 150 mg/l bo'lganda ingibitor samaradorligi 94,3 % ni, EDFS-1 markali korroziya ingibitoring ingibirlash samaradorligi esa 240 soat davomida plast suvida o'tkazilgan tajribada 96,1 % ni tashkil etgan.

4. Po'lat sirtining morfologiyasi atom kuch mikroskopi va skanerlovchi elektron mikroskopik yordamida aniqlangan.

5. Korroziya ingibitorlarining ingibirlash samaradorligini elektrokimyoviy va gravimetrik usullar yordamida va ingibirlash mexanizimi adsorbsiya jarayonini kinetik parametrlar va termodinamik (faollanish energiyasi, entalpiyasi va entropiyasi) parametrlar orqali aniqlangan.

6. Olingan oligomer korroziya ingibitorlari "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJ ning ilmiy-amaliy laboratoriyasida amaliyotga joriy etilgan. Natijada vodorod sulfidli korroziya va suv bilan sovutish sistemalarida yuzaga keluvchi korroziya jarayonida po'lat materiallarini himoyalash darajasi 93,65 % ni tashkil qilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.16/30.12. 2019.К/Т.87.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ХИМИЧЕСКОЙ  
ТЕХНОЛОГИИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ  
ХИМИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ**

**МИСИРОВ ЗАФАР ХОЛМУМИНОВИЧ**

**ИССЛЕДОВАНИЕ И РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ  
ИНГИБИТОРОВ СЕРОВОДОРОДНОЙ КОРРОЗИИ**

**02.00.14–Технология органических веществ и материалы на их основе**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.4.PhD/T3246.

Диссертация выполнена в Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу [www.tkiti.uz](http://www.tkiti.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

**Научный руководитель:** Бекназаров Хасан Сойибназарович  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Мухамедгалиев Бахтиёр Абдукадирович  
доктор химических наук, профессор

Нуруллоев Зафар Исматуллоевич  
доктор философии по техническим наукам

**Ведущая организация:** Навоийский государственный горно-технологический университет

Защита диссертации состоится « 16 » 06 2023 г. в « 10<sup>00</sup> » часов на заседании Ученого совета DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 при Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии по адресу: 111116, Ташкентская область, Ташкентский район, п/о Шурабазар. Тел.: (+99895) 144-67-83, e-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии за № 2023/14 с которой можно ознакомиться в ИРЦ (111116, Ташкентская область, Ташкентский р-н, п/о Шурабазар, Тел.: (+99895) 144-67-83, e-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru)).

Автореферат диссертации разослан « 01 » 06 2023 года.

(протокол рассылки № 2023/14 от « 01 » 06 2023 г.).

  
А.Т. Джалилов  
Председатель научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.х.н., проф., академик

Ш.Д. Ширинов  
Ученый секретарь научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
PhD тех., с.н.с.

Ш.Н. Киёмов  
Председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
ученых степеней, PhD тех., с.н.с.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В настоящее время разработка ингибиторов коррозии с высокой эффективностью ингибирования и их использование для защиты металлов и металлоконструкций от коррозии является одним из основных направлений решения проблем в области коррозии. Тем более сегодня экономическое развитие промышленности и производства неразрывно связано со стабильной работой устройств. Однако существует ряд требований для создания ингибиторов коррозии нового поколения, к которым относятся: низкоконцентрированные, малозатратные, экологически безопасные ингибиторы коррозии. Ингибиторы коррозии имеют важное значение в нефтегазовой отрасли для защиты трубопроводов от коррозии в различных агрессивных сероводородных, кислых, углекислых и водных средах.

Сегодня в мире ведутся научные исследования по разработке технологии получения ингибиторов коррозии, отвечающих всем требованиям и нормам, на основе органических и неорганических соединений для предотвращения коррозии металлов. В этом направлении большое внимание уделяется проводимым в мире исследованиям по получению олигомерных ингибиторов коррозии, содержащих азот и фосфор, а также синтезу и использованию ингибиторов коррозии, обладающих свойствами ингибирования металлов в различных агрессивных средах.

В нашей республике достигнуты научно-практические результаты по производству новых видов ингибиторов коррозии, замещающих импорт, на основе местного сырья и вторичных продуктов и испытанию их ингибирующей эффективности в различных агрессивных средах. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определены важные задачи, направленные на «Создание технологий получения импортозамещающей продукции из местного сырья и вторичных ресурсов»<sup>2</sup>. В связи с этим производство экономически эффективных и экологически безопасных ингибиторов коррозии и постоянное совершенствование существующих технологий имеют большое значение в предотвращении коррозии металлоконструкций.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № ПП-4805 от 12 августа 2020 года «О мерах по повышению качества непрерывного образования и эффективности науки в области химии и биологии» и ПП-3264 от 29 августа 2017 г. «О мерах по совершенствованию экспортно-импортной деятельности организаций

---

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

химической промышленности» и иных нормативных правовых документах, касающихся данной деятельности.

**Соответствие исследования приоритетам развития науки и техники республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с VII приоритетом развития науки и техники республики «Химические технологии и нанотехнологии».

